



## AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DINAMIKASINI STATISTIK O'RGANISH

*PhD Ilyosova Dilbar Ismoil qizi*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*

*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti*

*ORCID: 0009-0006-2824-0585*

*[ilyosovadilbar64@gmail.com](mailto:ilyosovadilbar64@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholi turmush darajasi va dinamikasini statistik o'rganilgan. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini baxolovchi asosiy yo'nalishlarni belgilash va uning hududlarida aholi pul daromadlari, ularni hosil bo'lish manbaalari statistik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** aholi daromadlari, Djini koeffitsienti, transfert daromadlar, nafaqa, tadbirkorlikdan olingan daromadlar, mehnat haqi, byudjet, indeksatsiya, iste'mol savati, aholi daromadlari, oziq-ovqat iste'moli, ijtimoiy to'lovlar, modernizatsiya, diversifikatsiya.

## СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ДИНАМИКИ НАСЕЛЕНИЯ

*PhD Илёсова Дильбар Исмоил кызы*

*Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан*

*Институт повышения квалификации и статистических исследований*

**Аннотация.** В данной статье проведено статистическое исследование уровня и динамики жизни населения. Для определения основных направлений оценки уровня жизни населения в нашей стране и статистического анализа денежных доходов населения на ее территориях, источников их формирования.

**Ключевые слова:** доход населения, коэффициент Джини, трансфертный доход, пособие, доход от предпринимательства, заработная плата, бюджет, индексация, потребительская корзина, доход населения, потребление продуктов питания, социальные выплаты, модернизация, диверсификация.

## STATISTICAL STUDY OF LIVING STANDARDS AND POPULATION DYNAMICS

*Ilyosova Dilbar Ismoil kizi*

*Statistical Agency under the President of the Republic of Uzbekistan*

*Institute for Human Resource Development and Statistical Research*

**Abstract.** In this article, a statistical study of the level and dynamics of life of the population is carried out. To determine the main directions for assessing the standard of living of the population in our country and statistical analysis of the monetary incomes of the population in its territories, the sources of their formation.

**Keywords:** household income, Gini coefficient, transfer income, allowance, income from entrepreneurship, wages, budget, indexation, consumer basket, household income, food consumption, social benefits, modernization, diversification.

## Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek: "Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni «Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi».

Prezidentimiz o'z asarlarida mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholinig tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar haqida alohida to'xtalib o'tdilar.

Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish – davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish, deb baholanadi. Prinstipial jihatdan g'oyat muhim bo'lgan bu pozistiyamizni yana bir bor alohida ta'kidlab o'tishni muhim va zarur deb hisoblayman".

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyastiyaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi.

Aholining tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari asosan pul daromadlari va natural shakldagi daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari aholi pul daromadlarining salmog'i sezilarli darajada oshib, uning tarkibiy tuzilishi ham takomillashib boradi.

Shuningdek, aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi (Abdurahmonov, Toxirova, 2019).

Aholi turmush darajasiga uning pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi hamda ular o'rtasidagi nisbat ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy holda aholi pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar, majburiy to'lov va badallar, omonatlar, qimmatli qog'ozlar, qat'iy valyuta xarid qilish va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib, bitiruv malakaviy ishi uchun dolzarb mavzu tanlangan deb hisoblash mumkin

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida izchil olib borilgan iqtisodiy islohotlar, hususan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishning natijasi o'laroq jamiyat a'zolarining maqomi o'zgardi. Jumladan, tadbirkorlik, fermerlar va ijarachilardan iborat yangi ijtimoiy guruh hamda, ilgari ham mavjud bo'lgan ishchi va xizmatchilarni tashkil etmoqda. Bunday ijtimoiy guruhlanish oilalar daromadining farqlanishiga olib keldi. Chunki, bu guruhga mansub oilalarning daromad olish manbalari turlicha (Abdurahmonov, Toxirova, 2019).

Masalan, ishchi va xizmatchilar oilasi daromadi asosan mehnat daromadlaridan tashkil topsa, dehqon oilasi qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirib sotish va natura shaklidagi daromadlardan, pensionerlar oilasi daromadi esa, pensiya va ijtimoiy to'lovlardan iborat bo'lib, ularning turmush tarzi shu daromadlarning miqdoriga bog'liq bo'lib qolmoqda va nihoyat tadbirkorlar oilasining daromadlari tadbirkorlik faoliyatidan, mulkni ijaraga berish, qishloq xo'jalik maxsulotlarini sotishdan va turli hil xizmatlardan olinadi. Hozirgi kunda ham Respublikamiz oilalarining ijtimoiy guruhlanishi izchil davom etmoqda. Mavjud ijtimoiy guruhlar yangi guruhga tadbirkorlar toifasiga kirib, turli hil mulkdorlar qatlamlari shakllanayotganligidan dalolat bermoqda.

O'tish davrining dastlabki yillarida aholi real daromadlarini mamlakat miqyosida pasayib ketishi barcha ijtimoiy guruhlariga xos edi. Keyingi yillarda (Abdurahmonov, Toxirova, 2019) xususiy mulk asosida tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida oila daromadlarining o'sishi kuzatilmoqda. Biroq bu o'sish turli sohalarda band bo'lganlarning daromadlari o'rtasida tengsizlikni keltirib chiqdi. Bugungi kunda kambag'al, kam ta'minlangan, o'rta ta'minlangan, yuqori ta'minlangan va boy oilalar toifalari vujudga keldi (G'oyibnazarov, Matkarimova, 2016).

Bozor munosabatlariga o'tish, boshqa mamlakatlar tajribasi ko'rsatayotganidek, oson, chigalsiz, iqtisodiy qiyinchiliklarsiz kechmas ekan. Bu borada, mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoyalash yaxshi yo'lga qo'yildi. Davlat muhtoj oilalarga mustaqillikning birinchi yilidan boshlab faol yordam bermoqda. Avvalo jamiyat haddan tashqari boylarga va haddan tashqari kambag'allarga ajralib ketishiga yo'l qo'yilmayapti. Aholining eng kam daromadli tabaqalari — bolalar, nogironlar, nafaqaxo'rlar, yolg'iz qariyalar uchun zarur moddiy ko'mak va ijtimoiy yordam ko'rsatib kelinmoqda. Manzilli ijtimoiy himoyaga kirishildi. Fuqarolarga o'zini-o'zi boshqarish organlari-mahalla orqali moddiy madad berila boshlandi. Mahalla hozir xalq ishonchini qozongan adolat maskani hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mehanizmi bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishi uchun avvalambor jamiyatni ijtimoiy barqarorligini ta'minlash zarur. Ijtimoiy barqarorlik esa davlatning ijtimoiy siyosati orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning turli xil yo'llari mavjud, ulardan:

Birinchi, mehnat taqsimoti hisobiga olinadigan aholining shaxsiy daromadlarini ko'paytirish yo'li bilan ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash. Buning uchun ishlab chiqarishga qo'shimcha kapital jalb etish orqali ishlab chiqarishni to'la quvvat bilan ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, qo'shimcha ishchi o'rinlarini kuchaytirish, mehnat unumdorligini oshirishdir. Bu yo'l bilan ijtimoiy barqarorlikni darhol tashkil qilib bo'lmaydi, chunki bularni ta'minlash uchun katta midorda investitsiya talab etiladi va uning natijalarini uzoq muddat kutishga to'g'ri keladi.

Ikkinchi yo'li, ayrim tovar va xizmatlarni sotib olishga imtiyozlar berish, aholining ayrim qatlamlarini ijtimoiy ta'minotini tashkil etish va ijtimoiy sug'urta hamda aholining ayrim qatlamlariga soliq to'lovlaridan imtiyozlar berish orqali ijtimoiy barqarorlikni tashkil etishdir.

Uchinchi yo'li esa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mashhur hujatlarida qayd etilishicha, qashshoqlikka qarshi kurashishda, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda maqsadli moliyaviy yordam berish katta ahamiyat kasb etadi. Bu yordam ijtimoiy ishlab chiqarish chiqarish infratuzilmasiga, oilaviy va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim<sup>23</sup>. Aynan kichik biznes kishilarni ish bilan band etadi, ularni kambag'allikdan, nochorlikdan chiqara oladi. Bizningcha, bu muammolarning echimi o'tish davri amal qilib turgan barcha mamlakatlar uchun ham dolzarb muammo xisoblanadi (Abdurahmonov, 2021).

O'zbekiston o'zining rivojlanish yo'lini belgilar ekan, taraqqiyotning besh tamoyilidan birini-kuchli ijtimoiy himoya deb belgilandi. Chunki, busiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda, jamiyatda fuqarolar orasida katta tafovut vujudga kelishi, mehnatga layoqatsizlar, ko'p bolali oilalar mushkul ahvolga tushib qolishi mumkin edi.

<sup>23</sup> Материалы семинара по вопросам инновационной культуры. ЮНЕСКО. Париж, 28 феврал-1 март 2006 г.

Aholi turmush darajasini aniqlash uchun BMT tomonidan tavsiya etilgan Inson Potensial Taraqqiy Indeksi (IPTI) o'lchamini qo'llash bizning statistikada ham ishlatilmoqda. IPTI inson hayoti mazmunini tashkil etadigan eng muhim va hal qiluvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Har bir ko'rsatkich ball bilan ifodalanadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: aholi jon boshiga real yalpi ichki maxsulot indeksi; kutilayotgan umr davomiyligi indeksi; ta'lim darajasi indeksi. Shu ko'rsatkichlardan xulosa tariqasida inson potensial taraqqiyoti indeksi belgilanadi. YaIM darajasi indeksidan tashqari barcha boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olgan (Soatov, Nabiyeu, Ayubjonov, 2019).

Statistik amaliyotda aholini daromadlar bo'yicha tabaqalanishini ifodalavchi ko'rsatkich sifatida Djini koefficientidan foydalaniladi. Bunda aholining barcha pul mablag'lari uning alohida guruhlarida taqsimlanadi. Uning ulushi 0 va 1 oralig'ida bo'ladi. Daromadlar teng taqsimlanganda koefficient 0ga yaqinlashadi. Agar, aksincha 1ga yaqinlashsa, jamiyatda daromadlarning teng taqsimlanmaganligini bildiradi.

Djini koefficientining (Суринов, 2009) matematik ifodasi quyidagi ko'rinishga ega.

$$G = \frac{\sum_i^n \sum_j^n (y_i - y_j)}{2n^2 y}$$

Bu erda, n-uy xo'jaliklari soni;

$y_j$ -o'rtacha daromad;

$y_i$  - uy xo'jaligi daromadi.

Bugungi kunda bozor qonuniyatlarini tez ilg'ab olgan oilalar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib o'z daromadlarini keskin ko'paytirishlari mumkin. Faqat mehnat haqi olish va turli hil ijtimoiy to'lovlar olish bilan cheklanib qolgan oilalarning yashash tarzi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu jarayon bevosita uy xo'jaligi daromadlarining farqlanishiga olib keluvchi asosiy omillarni biri xisoblanadi. Lekin shu bilan birga jamiyatimizda o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasligi kerak. Bu muammo mamlakatimizning har bir hududi uchun ham o'ta muhimdir. Zero, bozor munosabatlarini shakllantirish ko'p korxonalarining to'xtab qolishiga yangi ish o'rinlarini ochishning imkoniyati chegaralanishiga, mablag'larining etishmasligiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida oila daromadlariga ham ma'lum darajada ta'sir qilmasdan qolmaydi (Ayubjonov, 2021).

### Adabiyotlar sharhi.

Mamlakat aholisi turmush darajasini baholash va bu boradagi izlanishlar XX asrning 20-yillarida boshlanib, bu borada V.I. Rutgayzer, V.N.Salin,, V.F. Mayer., N.I. Buzlyakov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning ilmiy izlanishlarida aholi turmush darajasi o'z mamlakatlari aholisini turmush tarzi, ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi hamda rivojlanishini hisobga olib, ilmiy tadqiq etilgan. Bularning barchasi aholi turmush darajasini o'rganish sohasida bo'layotgan izlanish su'ratlariga, ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi (Rutgayzer, 2007; Salin, 2007).

Aholi turmush darajasini baholash muammolarini mahalliy olimlardan Soatov (2003), Abdullaev (1998), Abdurahmonov (2016), G'oyibnazarov (2016), va boshqalar o'z asarlarida keng bayon etganlar.

Rutgayzer (2007) Aholining pul daromadlarini tahlil qilish o'z-o'zidan ularning moddiy ne'matlar va xizmatlardan foydalanish darajasi, pul jamg'armalari ko'rsatkichlari bilan o'zaro aloqasini nazarda tutadi va bularga qiladigan xarajatlarini ham statistik o'rganishni talab etadi. Bu tahlilni mukammallashtirish vazifasi aholi yoki oilaning turli maqsadlari uchun qilgan xarajatlarini asosli ravishda ilmiy o'rganishni talab etadi.

Salin, (2019) "Aholi turmush darajasi"- bu aholining iste'molini qondirilishining moddiy imkoniyatlarini xarakterlaydi. U o'z ichiga ijtimoiy hayotni turli ijtimoiy jihatlarini: mehnat sharoiti, aholi daromadlari va xarajatlari darajasi va tuzilmasi, bo'sh vaqtdan foydalanish, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va boshqalarning rivojlanish darajasini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy hayotni bu ijtimoiy tomonlarini miqdoriy tavsiflash ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi hamda aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishini statistik o'rganish predmeti hisoblanadi" deb ta'riflaydi.

Aholi turmush darajasini baholash muammolarini mahalliy olimlardan

O'zbek milliy statistikasini ham nazariy ham amaliy tomondan shakllanishida ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qilgan prof. Soatov (2003) tahriri ostida chop etilgan "Statistika asoslari" darsligida mualliflar "Aholi turmush darajasi – bu sotsial-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda sotsial turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi" deb ta'rif berishgan.

Abdullaev (1998) ta'kidlaganlaridek, Aholi daromadlari — bu oila a'zolari tomonidan muayyan davrda olingan pul va natural ko'rinishdagi mablag'lar qiymati yig'indisini ifodalaydi. Har doim talabda-ehtiyojlar darajasi va tarkibi ortib, uning daromadlari miqdoriga bevosita bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Abdurahmonov (2016) aholining turmush darajasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi".

Ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlash borasida respublikamizning turli davlat organlari, respublikamizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari, respublikamizda barqaror sarmoya ko'lamini yaratish maqsadida, xamda respublikamiz aholisi turmush darajasini yaxshilash bo'yicha xamkorlik doirasida turli xalqaro tashkilotlar mutaxassislarini tomonidan keng ko'lamda samarali ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy tahlilning umumiy uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: tanlanma kuzatish, anketa orqali tekshirish, statistik guruhlash, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelyatsion-regretsion tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

### 1-jadval

**Aholining umumiy daromadlari tarkibi<sup>24</sup>**


	2023yil trln. so'm
Umumiy daromadlar	728,8
Aholining umumiy daromadlari nominal o'sish sur'ati	115,0 %
Aholining umumiy daromadlari real o'sish sur'ati	104,6 %

Ushbu jadvalda dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023-yilning yanvardekabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari 728,8 trln. so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil etdi.

<sup>24</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar<sup>25</sup>

	2023yil mln. so'm
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar	20,0 mln. so'm
Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati	112,6 %
Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'ati	102,4 %

1-rasm. Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi<sup>26</sup>

Ushbu rasm ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida Toshkent shahrida (44 427,9 ming so'm) hamda Navoiy (31 445,6 ming so'm), Buxoro (23 480,3 ming so'm) va Toshkent (20 730,2 ming so'm) va Xorazm (20 076,6 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.


Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (14 570,7 ming so'm), Namangan viloyati (15 070,6 ming so'm) va Farg'ona (15 716,5 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

**Aholining real umumiy daromadlari** – aholining nominal umumiy daromadlarini tegishli davr uchun iste'mol narxlari indeksiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi **102,4 %** ni tashkil etdi. Xuddi shu ko'rsatkich 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga **107,3 %** ni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (**7,6 %**) Navoiy (**5,7 %**), Sirdaryo (**4,4 %**), Andijon (**4,4 %**) va Jizzax (**4,3 %**) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga Xorazm (**-6,4 %**), Surxondaryo (**-0,8 %**), Samarqand (**-0,5 %**), Buxoro (**-0,4 %**), Namangan (**-0,3 %**) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari pasayishi qayd etildi.

<sup>25</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>

<sup>26</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>



2-rasm. Aholining umumiy daromadlari tarkibi<sup>27</sup>  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha)

Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida **29,7 %** ulushga ega bo'lgan yollanma ishchilarning daromadlari va **34,3 %** ulushga ega mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hamda **26,7 %** ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan. Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy (**79,5 %**), Toshkent (**75,2 %**), Jizzax (**75,0 %**), Sirdaryo (**67,3 %**) va Buxoro (**67,2 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.




3-rasm. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar<sup>28</sup>

Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilar va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi **64,0 %** ni tashkil etdi.

<sup>27</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>

<sup>28</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>




4-rasm. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi <sup>29</sup>

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **119,8 %** ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **12,1 %** ga o'sishini ta'minladi.



5-rasm. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati <sup>30</sup>

Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati **119,9 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,7 %** ga o'sishini ta'minladi.



6-rasm. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati <sup>31</sup>

<sup>29</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>

<sup>30</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>

<sup>31</sup> Davlat statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>



Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **119,7 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **6,5 %** ga o'sishini ta'minladi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar **34,3 %** ni tashkil qildi.

### **Xulosa va takliflar.**

Aholini turmush darajasini o'rganish oila hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinadiki, aholini turmush darajasini o'rganish, statistik baholash murakkab bo'lib, maxsus statistik usullardan: uy xo'jaligi byudjetini tekshirish, aholini pul daromadlari va xarajatlari balansidan foydalanib olib boriladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash aniq va maqsadli yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish-yangi ijtimoiy himoyalash tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ham kengaytirilishi lozim. Bu:

- odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faolashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish (har bir kishining iqtisodiy erkinligini shakllantirish);
- aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz farqlarga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish;
- qashshoqlikka qarshi kurash, eng muxtoj aholi qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishni kuchaytirish, demakdir.

O'zbekistonda o'ziga xos mahalla instituti orqali amalga oshirilayotgan maqsadli ijtimoiy ta'minot tizimi, garchi ayrim kamchiliklarga ega bo'lsada, boshqa har qanday tizim bilan solishtirganda yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda. Ushbu tizimning uzluksiz monitoringini o'tkazish va uning samaradorligini oshirish uchun mos keluvchi zarur o'zgartirishlarni kiritish zarur. O'zbekiston uchun makrodarajada eng muhim strategik vazifa iqtisodiy o'sish sifatini oshirishning texnologik modernizastiyalash, xalqaro raqobatbardoshlikning ortishi, iqtisodiyotning diversifikastiyalanishi va mamlakatni eksport tovarlari va xizmatlari keng doirasi texnologik rivojlangan ishlab chiqaruvchisiga aylantirish hisoblanadi. Bu samarali bandlikni oshirish va shu tariqa aholi farovonligini yaxshilash uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

### **Adabiyotlar/ Литература/ Reference:**

- Abdullaev Yo.A., (1998) *Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob.* 382 b.
- Abdurahmonov A. (2021) *Aholi statistikasi. O'quv qo'llanma Darslik.* – T.: Iqtisodiyot, 299 b.
- Abdurahmonov Q.X. (2016) *Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyoti) Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.* – T.: Mehnat, -610 b.2016y.
- Abdurahmonov Q.X., Toxirova X.T. (2019) *Aholini ijtimoiy muhofaza qilish /O'quv. qo'l. TDIU,* 232 b.
- Ayubjonov A.H. (2021) *Statistika nazariyasi, O'quv qo'llanma* –T: Iqtisodiyot, 340 b.
- G'oyibnazarov B.K. Matkarimova I.A., (2016) *Milliy hisoblar tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar* 300 b.
- Mirziyoyev Sh.M. (2020) *"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murijaatnomasi" Xalq so'zi, 30 dekabr, №271-272.*
- Rutgayzer V.A. (2007) *"Оценка стоимости бизнеса" Учебное пособие* 48 b.
- Salin V.N. (2019) *"Статистика уровня жизни населения" (Bakalavriat, Magistratura) Учебное пособие* 189 b.
- Soatov N.M. (2003) *"Statistika asoslari" darslik* 743 b.
- Soatov N.M.Nabiyev X., Ayubjonov A., (2019) *Statistika. Darslik.* –T.:Iqtisodiyot, – 543 b.
- Суринов А. (2009) *Доходы населения. М «Финансы и статистика»* 247-б.